

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



Buxoro davlat  
Universiteti rektori O. X. Xamidov

2022-yil “30” *avgust*

**YOZISH KO'NIKMALARI FANINING  
O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000	– San'at va gumanitar fanlar
<b>Ta'lim sohalari:</b>	230 000	– Tillar
<b>Ta'limyo'nalishi:</b>	60 230 100	– Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz)

**Buxoro – 2022**

<b>Fan/modul kodi</b> YK1310	<b>O'quv yili</b> 2023-2024 2024-2025	<b>Semestr</b> 3/4/5/6	<b>ECTS – Kreditlar</b> 10 (4/2/2/2)	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek, rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 2/2/2/2	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Yozish ko'nikmalari	120 (30/30/30/30)	180	300
2.	<p align="center"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Yozish ko'nikmalari fanining maqsadi - talabalarning B2-C1 daraja talabiga javob beruvchi turli mavzularga oid matnlarni yoza olish mahoratiga ega bo'lishlari va egallangan yozish ko'nikmalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi - umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarning yozish ko'nikmalarini C1 darajaga yetkazish, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishi yozishning boshlang'ich malakasini shakllantirish va takomillashtirishdir.</p> <p align="center"><b>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</b></p> <p><b><u>Yozma nutq amaliyoti mazmuni:</u></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- turli janrdagi yozma matnlarni, jumladan taklifnoma, tarjimai hol, shaxsiy va rasmiy xatlarni va arizalar to'g'ri yozish va ushbu matnlarning o'ziga xos xususiyatlari;</li> <li>- eshitgan, ko'rgan va o'qigan mavzusi asosida qisqa insholar yoza olish ko'nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish;</li> </ul>			

- gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish;
- jumalarni bir-biriga bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar, kirish so'zlaridan to'g'ri foydalanish;
- inshoning tuzilishi (kirish, asosiy qism va xulosa), uning mantiqiy uzviyligi va yaxlitligini ta'minlay olish;
- yozma nutqda matn janriga hamda maqsadiga muvofiq rasmiy yoki norasmiy uslubni tanlab, yoza olish;
- o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda insho mavzulari bo'yicha yozma ravishda aniq va mantiqiy bayon etish;
- qiyosiy, tahliliy va tanqidiy turdagi bayonlarni rejalashtira olish va ularda o'z fikrlarini dalilarga asoslangan tarzda yozish;
- umumiy va o'zlariga yaqin mavzudagi maqolalarni, uchinchi bosqichda esa, kasbga doir ilmiy maqolalarni qisqachi mazmunini yozish;
- kitob yoki filmlarning mazmunini tanqidiy fikrlarga asoslangan holda yozma bayon etish va ularga qisqa taqriz yoza olish;
- yozma nutqdagi turli uslublardan mahorat bilan foydalanish;
- o'z yozma nutqini tahrir qilish va tekshirish orqali ona tili interferentsiyasi muammolarini aniqlash va bartaraf etish;
- rejalashtirish, baholash, tahrir qilish va qayta ko'rib chiqish kabi mavzulardan iborat bo'ladi.

**Yozma nutq amaliyoti uchun tavsiya etiladigan matn turlari**

**2 kurs davomida**

**Qisqa insho (paragraf) yozish bosqichlari**



- mos sarlavhani tanlash;
- kirish qismini yozish;
- inshoning asosiy g'oyasini ifodalash;
- dalil va isbotlarni bayon etish;
- yozma ishda plagiatga (ko'chirmakashlikka) yo'l qo'ymaslik

Faktlar asosida yozish:

- bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, ta'lim jarayoniga oid muammolar va b.)

**Insholar:**

- tasviriy;
- hikoya tarzidagi;
- qiyosiy;
- tahliliy (sabab va natijalarni tahlil qilish);
- kitob yoki fil'mlarning qisqa taqrizi;
- universitet gazetasi uchun maqola

**Xatlar va boshka muloqot hujjatlari:**

- turli maqsadlardagi xatlar;
- rasmiy va norasmiy xatlar;
- yozma tanqidiy, rad javobi (masalan, biznesdagi hamkoriga)
- norasmiy elektron xatlar

**3 kurs davomida**

**Faktlarga asoslangan yozma nutq;**

- hisobotlar (uchrashuv hisobotlari, tashrif hisobotlari);
- tadqiqot hisobotlari;
- yaxshi va yomon tomonlarini baholash va tahliliy hisobot

**Insholar:**

- fikr bildiruvchi insho;
- "qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi" insho
- bahs munozarali insho turi
- tanqidiy bayonlar 2-kursdagiga qaraganda batafsil va keng bo'lishi lozim;
- voqea-hodisalar sharhi;
- maqola sharhi

**Xatlar va rasmiy hujjatlar:**

- rasmiy xatlar;
- ariza;
- ilova xati;
- tavsiyanoma;
- tushuntirish xati va b.

### **III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**3.**

Fan modullari kesimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadida kafedra mutaxassislari tomonidan uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. Ularda talabaning mustaqil o'qib o'rganishini ta'minlovchi vazifa va topshiriqlar ko'rsatib o'tiladi va ularni bajarish uchun aniq ko'rsatmalar misollar yordamida

beriladi. Tilni o'rganish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va mustaqil fikrlash talab qilinadi. Bunda o'qituvchi bilim beruvchi va baholovchi sifatida emas, balki fasilitator (inglizcha facilitate so'zidan olingan bo'lib, biror bir jarayonning borishiga yaxshi ta'sir etuvchi va unga mos shart-sharoitlar yaratib beruvchi) sifatida namoyon bo'ladi. Talabadan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olishi talab etiladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

- Shaxsiy xatlar;
- Kundaliklar;
- Informatsion bukletlar, broshyuralar (fil'mlar, ko'rgazma va hokazolar haqida), sayyohlik yo'riqnomalari;
- Jurnal maqolalari (mashhur shaxslar bilan suhbatlar, goroskoplari);
- Yangiliklar bayoni;
- Tanish mavzularga oid qisqa gazeta maqolalari;
- She'rlar;
- Internet matnlari (bloglar);
- E'lonlar (grantlar, sayohat manzillari haqida);
- Qo'llanmalar/instruktsiyalar (texnik vosita, asboblar uchun );
- Qomusiy maqolalar;
- Tabriknomalar va taklifnomalar;
- Shaxsiy ma'lumotnomalar, anketa savollari;

4.

- Sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar;
- Voqea-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag'ishlangan xatlar, matnlar;
- e-mail, internet forumlariga xatlar;
- Rezyume va tarjimai hol;
- Bitiruv malakaviy ishi;
- Ilmiy maqola;

#### **IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Mazkur dastur bo'yicha ta'lim olgan talaba:

- o'rganilayotgan asosiy chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra C1 darajada o'zlashtirishi;
- o'rganilayotgan chet tilida yozish ko'nikmalarini egallashi;
  - yozma nutqda matn janriga hamda maqsadiga muvofiq rasmiy yoki norasmiy uslubni tanlab yoza olish;
  - yozma nutqdagi turli uslublardan mahorat bilan foydalanish;
- o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda yozma ravishda aniq va mantiqiy bayon etishi;
- bitiruv malakaviy ishini yozish, ilmiy ishni olib borish bosqichlari, yozish uslublarini to'g'ri qo'llash va ilmiy matnni tahrirlash borasida yetarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

5.

#### **V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**

Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so'rov, kichik guruhlarda ishlash, insert, prezentatsiya, keys stadi kabi usullardan keng foydalaniladi.



Modullar 100% o'rganilayotgan tilda o'qitiladi.

6.

### **VI. Kreditlarni olish uchun talablar**

Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. David Bohlke, Dorothy E. Zemach (2013) Skillful 1. Reading and writing. Macmillan.

2. Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E. Zemach (2012) Skillful 2. Reading and writing. Macmillan.

3. Macmillan Academic Skills. Skillful Reading and Writing. Teacher's Book 3. Author: Stacey H. Hughes. Series Consultant: Dorothy E. Remach

4. Macmillan Academic Skills. Skillful Reading and Writing. Student's Book 4 with Digibook access. Macmillan. Authors: Mike Boyle and Lindsay Warwick. Series Consultant: Dorothy E. Remach

5. Macmillan Academic Skills. Skillful Reading and Writing. Student's Book 3. Macmillan with access to the Student's Resource Center

6. Academic writing from paragraph to essay. Dorothy E. Remach. Lisa A. Runusel. Macmillan

7. Macmillan Writing Series. Writing Essays. From paragraph to essay. Student Book. Macmillan. Dorothy E. Remach. Lisa A. Ghulldu.

8. Practise Writing. Mary Stephens. Longman. Presented by British Council Eurocentres. Revised edition.



### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Driscoll, L. (2004), Reading Extra A resource book of multi-level skills activities.
2. Fry, E. B. (2000), Skimming and scanning Pre-intermediate. Jamestown Publishers.
3. Greenall, S. & D. Pye (2007), Reading 1, Cambridge Skills for Fluency. Cambridge: CUP.
4. Newspapers and magazines (e.g. English Teaching professional, Modern English Teacher, Uzbekistan Today, The Economist, The New Scientist, National Geographic etc)
5. Intermediate. North Star. Reading and Writing. Presented by British Council. Second edition Laurie Barton. Carolyn Dupaquier Sardines. Longman.com.

### **Axborot manbalari**

1. [www.developreading.com](http://www.developreading.com)
2. [www.teachingenglish.org.uk](http://www.teachingenglish.org.uk)
3. [www.online-literature.com](http://www.online-literature.com)
4. [www.literature.org/](http://www.literature.org/)
5. [www.pearsonlongman.com/ae/](http://www.pearsonlongman.com/ae/)

**Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

*Ma'xur fan dasturi 2022-yil 30-avgustda  
BuxDU Ilmiy kengashi 1-sonli bayon-  
nomasi bilan tasdiqlangan.*

**Fan uchun mas'ul:**

**Nazarova N.A.** – BuxDU, “Ingliz tilshunosligi” kafedrasida o'qituvchisi



**Taqrizchilar:**

**Rasulov Z.I.** – BuxDU, “Ingliz tilshunosligi” kafedrasida mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent



**Djumayeva N.D.** – BuxDU, “Ingliz tilshunosligi” kafedrasida katta o'qituvchisi

